




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-MART OYLARI (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 61-222-75-87

www.qrstat.uz



2023 yil yanvar-mart oylarida



Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2023-yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi korxonalari tomonidan 3804,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 86,7 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 3239,9 mlrd. so‘m jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 85,2 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi kamayishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 13,3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 28,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 17,6 % ga pasayishidir. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 196,4 % ga, oshganligi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.




2023- yil yanvar-mart oylarida
Oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan % da

Ohah tosh



Tabiiy gaz




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Ohah tosh, tonna	67398,5	49398,8	-17999,7
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	369,0	265,7	-103,3

Gaz kondensati



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Gaz kondensati, ming t.	20,1	15,9	- 4,2


2023- yil yanvar-mart oylarida



2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3239,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,2 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi – 0,1 % ni (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali– 53,7 % (63,9 %), o'rta-quyi texnologiyali– 2,9 % (3,0 %) hamda quyi texnologiyalisi – 43,3 % (32,8 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 45,8 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 77,6 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 16,2 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,9 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 94,4 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % (2022- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 67,1 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 5,0 ming tonna kalava ip (2022- yilning mos davriga nisbatan 39,4 % ga), 2,6 ming tonna tozalangan o'simlik yog'i (27,2 %), 11,8 ming tonna paxta chigiti (9,4 %), 1,1 ming tonna tozalangan guruch (5,6 %), 17,3 ming tonna paxta tolasi (3,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, 36,6 ming tonna portlandsement (51,6 %), 18,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (43,6 %), 879,1 ming litr aroq (5,2 %), ishlab chiqarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	927,7	879,1	-48,6
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	2044,8	2600,4	555,6
Paxta tolasi, t.	10808,8	11180,8	372,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	32639,7	18422,4	-14217,3
Polietilen, ming t.	75,7	64,3	- 11,4
Polipropilen, ming t.	21,5	19,2	-2,3

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-mart oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 54,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 45,5 % ni, fizik hajm indeksi 76,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1729,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 91,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 12,5% ga oshgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 549,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 130,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 5,4 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 668,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 146,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 32,9 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 67,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 102,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 107,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 68,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 151,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 92,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 50,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Mebellar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-mart oylarida mebel mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 84,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 176,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 22,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-mart oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 73,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 229,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 11,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-mart oylarida, boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 200,1 %.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi 76,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 23,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




Elektr, gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 510,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,4 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 71,1 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,2 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,8 % ga oshganligi va shahar xo'jaliging qayta foydalanishga yaroqsiz, xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 45,0 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 603,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 15,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (102,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Xo'jayli (191,5 %), Bo'zatov (129,1 %), Mo'ynoq (110,6 %), Chimboy (107,5 %) tumanlarida hamda (106,8 %) Nukus shahrida qayd etildi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan past o'sish sur'ati Shumanay (38,4 %), Taxtako'pir (49,4 %), Qorao'zak (70,8 %), Taxiato'sh (91,9 %) hamda To'rtko'l (95,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 80,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 19,1 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 38,0 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 110,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 79,5 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib 20,3 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 13,2 % ni, Xo'jayli tumani 10,7 % ni, Ellikqal'a tumani 8,8 % ni, To'rtko'l 8,4 % ni, Beruniy tumani 8,3 % ni, Chimboy tumani 6,3 % ni, va Amudaryo tumani 6,1 % ni tashkil etdi.




o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Qoraqalpog'iston Respublikasi





Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi yuqori ulushi Ellikqal'a tumani 17,1 % ni, Xo'jayli tumani 16,5 % ni, Nukus shahri 14,7 % ni, To'rtko'l tumani 9,3 % ni, Amudaryo tumani 7,2 % ni hamda Beruniy tumani 6,3 % ni tashkil etdi.






■ o'sish sur'ati
■ mlrd. so'm






Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 21,6 %, shuningdek, Taxiatoş tumani 15,8 % ni, Xo'jayli tumani 9,4 % ni, Beruniy tumani 8,8 % ni, To'rtko'l tumani 8,2 % ni hamda Ellikqal'a tumani 6,8 % ni tashkil etdi.






Qoraqalpog‘iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 46,2 %), Taxiatoş (14,1 %), Qo‘ng‘irot (7,1 %), To‘rtko‘l (5,4 %), Amudaryo (4,5 %) va Beruniy (4,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Taxiatosh tumanida (7042,4 ming so'm) va Nukus shahrida 5241,8 ming so'm) o'rtacha Respublika darajasi ko'rsatkichidan (1922,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 305,0 ming so'm bo'lgani holda, Taxiatoş tumanida 1046,0 ming so'mni, Xo'jayli tumanida 508,1 ming so'mni, Nukus shahrida 365,9 ming so'mni, Taxtako'pir tumanida 353,2 ming so'mni va Mo'ynoq tumanida 334,7 ming so'mni tashkil etdi



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 758,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,9 % ni tashkil etdi.



 ulushi, % da
 mlrd. soʻm



Qoraqalpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



Bugungi kunda respublikada 3333 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1864 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 55,9 %) Nukus shahriga 592 tasi (17,8 %), To'rtko'l 347 tasi (10,4 %), Amudaryo 320 tasi (9,6 %), Ellikqal'a 308 tasi (9,2 %), Beruniy 297 tasi (8,9 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda

Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



 yangi tashkil etilgan
 faoliyat yuritayotgan

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Qoraqalpogʻiston Respublikasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori oʻsish surʼatlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham oʻz taʼsirini koʻrsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 10 ta loyiha boʻyicha 68,4 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 5,9 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023-yilning yanvar-mart oylarida 5 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish oʻrinlari soni 90,9 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining oshganligi kuzatildi

